XALQ DEPUTATLARI ULUG‘NOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Shahriobod MFY Navoiy shox ko‘chasi 1-uy. Tuman hokimligi binosida, +998 99 437 7067,
ulugnortumanixdk@umail.uz

2026-yil 20-aprel VII-14-36-1-26-K/26 Ulug‘nor tumani

Ulug‘nor tumani bo‘yicha 2026-yilda “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kungi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qaroriga, Soliq kodeksining 455-moddasiga shuningdek Ulug‘nor tumani soliq inspeksiyasining 2026-yil 13-fevral kungi 21-00447-sonli xatiga asosan xalq deputatlari Ulug‘nor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kungi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ulug‘nor tumani soliq inspeksiyasining 2026-yil 13-fevral kungi 21-00447-sonli xati inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabr kungi PQ-387-sonli qarori bilan 2026-yil 1-yanvardan boshlab: Xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman (shahar)lar budjetlariga yo‘naltirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Ulug‘nor tumani bo‘yicha 2026-yilda “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari bo‘yicha takliflar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ulug‘nor tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Qo‘ziboyev) va tuman soliq inspeksiyasi (B.Maxsudov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Alimov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

Kengash raisi **RAXIMOV XUSANBOY MARIPOVICH**

Xalq deputatlari Ulug‘nor tumani
Kengashining
2026-yil 20-apreldagi
VII-14-36-1-26-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Ulug‘nor tumani bo‘yicha 2026-yilda “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan

STAVKALARI

№	Yig‘im turi	Bir oyga (so‘mda)	
		O‘RQ - 1105-son Qonunning 9-ilovasida belgilangan chegaralangan stavka	2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im turi
1	“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidani “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	180 000